

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH  
MILLIY AGENTLIGI**



**TA'LIM DASTURINI  
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA**

# **YAKUNIY HISOBOT**



**RAQAMLI IQTISODIYOT VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**  
nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

**60411200 – Marketing**  
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI  
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI  
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**60411200 – Marketing**

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN  
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

**RAQAMLI IQTISODIYOT VA AGROTEXNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI**

*(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)*

## 1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

|                                                              |                                                                                                |
|--------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ariza raqami                                                 | MAO260097                                                                                      |
| Xulosa raqami                                                | 1111-son                                                                                       |
| Xulosa sanasi                                                | 2026-yil 16-iyun                                                                               |
| Ta'lim tashkilotining to'liq nomi                            | "Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti" nodavlat ta'lim muassasasi            |
| Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari | Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani, Boshliq dahasi, 3-uy; guvohnoma № 2001911, 07.01.2022-yil  |
| Baholangan ta'lim dasturi nomi                               | Marketing                                                                                      |
| Yo'nalish / mutaxassislik kodi                               | 60411200                                                                                       |
| Akkreditatsiya usuli                                         | masofaviy                                                                                      |
| Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)                  | Kasimov Ikboljon Ilxam o'g'li – Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi; ekspert komissiyasi raisi |

## 2. HUQUQIY ASOSLAR

### Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

### Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

### 3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

|                                                                                                                      |                                                             |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| <b>1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi:</b><br><i>License/Certificate of Educational Institution:</i>    | № 2001911 / 07.01.2022                                      |
| <b>2. Ta'lim tashkilotining turi:</b><br><i>Type of Educational Institution:</i>                                     | Nodavlat oliy ta'lim tashkiloti                             |
| <b>3. Ta'lim dasturi kodi va nomi:</b><br><i>Code and Name of Study Programme:</i>                                   | 60411200 – Marketing                                        |
| <b>4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in English:</i>                 | 60411200 – Marketing                                        |
| <b>5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi:</b><br><i>Name of Study Programme in Russian:</i>                    | 60411200 – Маркетинг                                        |
| <b>6. Hamkorlikda amalga oshirilishi:</b><br><i>Offered in Cooperation with:</i>                                     | —                                                           |
| <b>7. Ta'lim tili:</b><br><i>Medium of Instruction:</i>                                                              | o'zbek, rus                                                 |
| <b>8. Ta'lim shakli:</b><br><i>Mode of Study:</i>                                                                    | kunduzgi / kechki                                           |
| <b>9. Ta'lim dasturi hajmi:</b><br><i>Study Programme Credits:</i>                                                   | 240 kredit                                                  |
| <b>10. Ta'lim dasturi davomiyligi:</b><br><i>Duration of Study Programme:</i>                                        | 4 yil / 4,5 yil                                             |
| <b>11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi:</b><br><i>Level in National Qualifications Framework:</i>                 | 6-daraja                                                    |
| <b>12. Kvalifikatsiya(lar) nomi:</b><br><i>Qualification Title:</i>                                                  | Marketing                                                   |
| <b>13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar:</b><br><i>Additional Qualifications Awarded:</i>                    | —                                                           |
| <b>14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi:</b><br><i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>       | Davlat namunasidagi diplom                                  |
| <b>15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr):</b><br><i>Maximum Number of Students (full period):</i> | 160 nafar                                                   |
| <b>16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili:</b><br><i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>              | Toshkent shahar, Yakkasaroy tumani,<br>Boshliq dahasi, 3-uy |

#### 4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

| №         | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                                                                                                                         | Muvofiqligi    |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>1.</b> | <b>Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash</b>                                                                                                                                                                                                              | <b>Muvofiq</b> |
| 1.1.      | <i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>                                                                                                                                     | Muvofiq        |
| 1.2.      | <i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>                                                                                                                               | Muvofiq        |
| 1.3.      | <i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>                                                                                                      | Muvofiq        |
| 1.4.      | <i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>                                                                                                              | Qisman muvofiq |
| <b>2.</b> | <b>Ta'lim dasturlari</b>                                                                                                                                                                                                                                      | <b>Muvofiq</b> |
| 2.1.      | <i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i> | Muvofiq        |
| 2.2.      | <i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>                                                                                                                                       | Muvofiq        |
| 2.3.      | <i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>                                                                                                                                                                    | Muvofiq        |
| <b>3.</b> | <b>O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash</b>                                                                                                                                                                                          | <b>Muvofiq</b> |
| 3.1.      | <i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>                                                                                                                                                                 | Muvofiq        |
| 3.2.      | <i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 3.3.      | <i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>                                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 3.5.      | <i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>                                                                                                                   | Muvofiq        |
| 3.6.      | <i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>                                                                                                                                                            | Muvofiq        |
| 3.7.      | <i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>                                                                                                           | Muvofiq        |

| №         | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                                                                                                                                                             | Muvofiqligi    |
|-----------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------|
| <b>4.</b> | <b>Talabalar faoliyati</b>                                                                                                                                                                                                                                                                        | <b>Muvofiq</b> |
| 4.1.      | <i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>                                                                                                                                                                         | Muvofiq        |
| 4.2.      | <i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>                                                                                                                                                                                                   | Muvofiq        |
| 4.3.      | <i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>                                                                                                                                  | Muvofiq        |
| 4.4.      | <i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>                                                                                                                                                                                                      | Muvofiq        |
| <b>5.</b> | <b>Inson resurslari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                           | <b>Muvofiq</b> |
| 5.1.      | <i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>                                  | Muvofiq        |
| 5.3.      | <i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>                                                                                              | Muvofiq        |
| 5.4.      | <i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>                                                                                                                                                      | Muvofiq        |
| <b>6.</b> | <b>Moddiy-texnik ta'minot</b>                                                                                                                                                                                                                                                                     | <b>Muvofiq</b> |
| 6.1.      | <i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i> | Muvofiq        |
| 6.2.      | <i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>                                                                                                                                                        | Muvofiq        |
| 6.3.      | <i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>                                                    | Muvofiq        |
| 6.4.      | <i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>                                                                                                  | Qisman muvofiq |
| 6.5.      | <i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>                                                                                                                 | Muvofiq        |

| No   | Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari                                                                                                                        | Muvofiqligi |
|------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------|
| 6.6. | <i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>                                | Muvofiq     |
| 6.7. | <i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i> | Muvofiq     |

## 5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

**1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi (muvofiq).** "Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti" mas'uliyati cheklangan jamiyatining "Menejment" ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish doirasida 1-bob, ya'ni "Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi" bo'yicha amalga oshirilgan baholash natijalariga ko'ra, universitetda ushbu ta'lim dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan tarkibiy tuzilmani (kafedrani) tuzish rasmiy ravishda rasmiylashtirilgan bo'lib, uning moddiy- texnik va moliyaviy ta'minoti bo'yicha aniq, tizimli rejalari mavjud hamda Kafedra, Fakultet va O'quv-metodika bo'limining vakolatlari va funksiyalari maxsus nizomlar orqali huquqiy jihatdan aniq belgilangan va dasturning maqsadlariga to'liq mos keladi.

**2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi (muvofiq).** Universitetning "Menejment" ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida 2-bob, ya'ni "Ta'lim dasturlari yo'nalishi" doirasida o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, mazkur yo'nalish umumiy holati "Muvofiq" deb baholandi.

**3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi (muvofiq).** Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universitetining "Menejment" ta'lim dasturi doirasida o'quv jarayonining tashkil etilishi va talabalar bilimini baholash tizimi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijasiga ko'ra, mazkur yo'nalish umumiy holati "Muvofiq" deb baholandi.

**4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi (muvofiq).** Universitetning "Menejment" ta'lim dasturini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish doirasida 4-bob - "Talabalar faoliyati yo'nalishi" bo'yicha amalga oshirilgan tashqi baholash natijalariga ko'ra, mazkur yo'nalishning umumiy holati "Muvofiq" deb baholandi.

**5-bob. Inson resurslari yo'nalishi (muvofiq).** "Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti" MChJning 60410800 - Menejment bakalavriat ta'lim

dasturi bo'yicha inson resurslari salohiyati, pedagog va ma'muriy-yordamchi kadrlar ta'minoti hamda ularni rag'batlantirish tizimi tashqi baholash mezonlari doirasida tahlil qilinganda, ushbu yo'nalish umumiy hisobda "Muvofiq" deb baholandi.

**6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi (muvofiq).** Menejment bakalavriat ta'lim dasturini amalga oshirish uchun yaratilgan moddiy-texnik va axborot-resurs bazasi, o'quv auditoriyalari, laboratoriyalar hamda talabalar uchun sharoitlar tashqi baholash mezonlari asosida tahlil qilinganda, ushbu yo'nalish umumiy hisobda "Muvofiq" deb baholandi.

## **6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR**

**Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):**

Ekspert komissiyasi xulosasida akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmagan.

**Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:**

- ✓ Mehnat bozori monitoringi zanjiriga ilmiy bo'lim hisobotlarini ham qo'shish zarur (1.4-mezon qisman muvofiq).
- ✓ Dasturiy ta'minotlar orqali to'liq inklyuziv muhit hali to'liq shakllanmagan (6.4-mezon qisman muvofiq).

## **7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR**

- ✓ Mehnat bozori monitoringi tizimiga ilmiy bo'lim hisobotlarini qo'shish tavsiya etiladi.
- ✓ Inklyuziv ta'lim uchun dasturiy va texnik ta'minotni to'ldirib, to'liq inklyuziv muhit yaratish tavsiya etiladi.
- ✓ Marketing amaliyoti va korxonalar bilan hamkorlikni kengaytirish tavsiya etiladi.

## **8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA**

Yakuniy xulosa "Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti" nodavlat ta'lim muassasasining 60411200 – Marketing bakalavr ta'lim dasturi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar hamda asoslovchi materiallar tahlili asosida shakllantirildi. Baholash oltita yo'nalish (bob) va ularga tegishli mezonlar bo'yicha o'tkazildi.

O'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim dasturi tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha belgilangan talablarga javob berishi aniqlandi. Barcha oltita yo'nalish muvofiq deb baholandi; mezonlar orasida ayrimlari (1.4, 6.4) qisman muvofiq deb topildi.

Aniqlangan kamchiliklar akkreditatsiyaga to'sqinlik qilmaydi va ular o'quv jarayonini takomillashtirish hamda hujjatlashtirishni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar asosida bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin.

Yuqoridagi barcha dalillarga tayangan holda, 60411200 – Marketing bakalavr ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasi talablariga **muvofiq deb baholandi**.

## 9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

|                                                                   |                                |
|-------------------------------------------------------------------|--------------------------------|
| Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:                         | 2026-yil 5-iyun                |
| Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:                            | 2-son                          |
| Yakuniy qaror (akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi) | <b>AKKREDITATSIYADAN O'TDI</b> |



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz  
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

